

## YOSHLARNING DINIY QADRIYATLARIDA SOTSIAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI SHAKLLANGANLIK DARAJALARINI TADQIQ QILISH METODLARI

*Dosjanova Yulduz Rahatovna,*

*Xalqaro islom akademiyasi "Din psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasida o'qituvchisi*  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.065>

*Annotatsiya: Yoshlarning diniy qadriyatlarida sotsial-psixologik xususiyatlarni shakllanganlik darajalarini tadqiq qilish metodlari deb nomlanuvchi ushbu maqolada inson ruxiyatida aks etuvchi diniy qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan I.F. Myagkov, Y.V. Shcherbatix, M.S. Kravsovlarning "Individual diniy qadriyat tiplari" testi, G.Allport, E. Roslarning "Ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo'nalganlik" so'rovnomasi, D.O. Smirnovning "Diniy faollik qadriyatlari" so'rovnomalarining mazmuni va metodologik asoslari keltirilib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: din, qadriyat, diniy qadriyat, nazariya, metodika, metodologiya, test, so'rovnoma.*

## МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ УРОВНЕЙ СФОРМИРОВАННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ

*Досжанова Юлдуз Рахатовна,*

*Преподаватель кафедры «Религиозной психологии и педагогики» Международной исламской академии*

*Аннотация: В данной статье, известной как методы исследования уровней сформированности социально-психологических особенностей религиозных ценностей молодежи, использован тест «Индивидуальные типы религиозных ценностей» И.Ф. Мягкова, Ю.В. Щербатых, М.С. Кравцова направлена на определение религиозных ценностей, отраженных в духе человека, опросник Г. Олпорта, Е.Росса «Ориентация на внутренние и внешние религиозные ценности», опросники Д.О. Смирнова «Ценности религиозной деятельности», содержательные и методологические основы. представлено.*

*Ключевые слова: религия, ценность, религиозная ценность, теория, методология, методология, тест, анкета*

## METHODS OF RESEARCHING THE LEVELS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS FORMATION IN THE RELIGIOUS VALUES OF YOUNG PEOPLE

*Dosjanova Yulduz Rahatovna,*

*Teacher at the Department of Religious Psychology and Pedagogy at the International Islamic Academy*

*Annotation: In this article, which is known as methods of researching the levels of formation of socio-psychological features in the religious values of young people, the test of "Individual religious value types" by I.F. Myagkov, Y.V. Shcherbatix, M.S. Kravsov is aimed at determining the religious values reflected in the human spirit, G Allport, E.Ros's "Orientation to internal and external religious values" questionnaire, D.O. Smirnov's "Values of religious activity" questionnaires, content and methodological bases are presented.*

*Key words: religion, value, religious value, theory, methodology, methodology, test, questionnaire*

*Kirish. Jahonda ilm fanni yuzaga kelish omillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab fan ma'lum faylasuflarning tabiiy ravishda yuzaga keluvchi tabiat hodisalari borasidagi nazariy qarashlari zamirida yuzaga kelgan. Mazkur nazariyalar ham o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda shakllanish mexanizmiga ham ega bo'lgan (1-rasmga qarang).*




### 1-rasm. Ilmiy nazariyaning yuzaga kelish mexanizmi.

Mana oradan qancha asr o'tgan bo'lsa ham ilm-fan taraqqiyotida nazariyalar mazkur mexanizm zamirida yuzaga kelmoqda. Faqat bugungi kunda mazkur mexanizmga "amaliy" bosqichi ham qo'shilgan. Mazkur bosqichni qo'shilishiga sabab sifatida dunyo jamiyatini industriallasuvga o'tishi va olimlarning ilm-fanda nazariyalarni amaliy tasdig'ini topishi kerakligi borasidagi g'oyalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlanib o'tilgan jarayonlar fanda psixologiyaning ham alohida fan sifatida shakllanishiga sababchi bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek psixolog olimlar ham psixologiya fanining alohida fan sifatida shakllanishiga olimlarning inson ruhiyati bilan bog'liq nazariyalarni amaliy jihatdan tadqiq etish maqsadida ilk eksperimental laboratoriyalarning ham yuzaga kelishini asosiy sababchi omil sifatida ham e'tirof etib o'tishadilar. Dunyoda inson ruhiyatini eksperimental jihatdan tadqiq etuvchi laboratoriyalarda ko'plab psixologik metodikalar ham yaratilgan. Shu qatorida hozirgi tadqiq etilayotgan kategoriyalar ya'ni qadriyat, din va diniy qadriyatlarni empirik jihatdan ham o'rganuvchi metodikalar dunyo yuzini ko'rgan. Ilmiy tadqiqot ishimiz yuzasidan metodikalarni topish va ularni metodologik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etishimiz mobaynida bu turdagi metodikalar juda kam ekanligini guvohi bo'ldik. Biroq ushbu metodikalar ilmiy tadqiqot ishimizni asosiy o'rganishi kerak bo'luvchi xususiyat bo'lganligi uchun ham ularni metodologik asoslarini va ular asosida olingan birlamchi ma'lumotlarni keltirib o'tishni lozim topdik.

Adabiyotlar tahlili: Metodologik jihatdan diniy qadriyatlar fenomeni o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda din va qadriyat kategoriyalarini birlashmasidan tarkib topgan bo'lib, ularni tadqiq etuvchi metodikalar ham diniy qadriyatlarni aniqlovchi metodikalar sirasiga kiradi. Diniy qadriyatlarni empirik jihatdan o'rganish tadqiqotchilarga burmuncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bunday xulosaga kelinishiga sabab bo'luvchi bir qancha omillarni dalil sifatida keltirishimiz mumkin (2-rasmga qarang).



### 2-rasm. Diniy qadriyatlarni aniqlovchi metodikalar inqirozi sabablar

Yuqorida keltirilib o'tilgan kamchiliklarga qaramasdan biz ilmiy izlanishlarimiz davomida diniy qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan bir qancha metodikalarni ilmiy jihatdan mahalliy muhitga moslab o'z dissertatsiya ishimizda foydalandik.

Ulardan biri G.Olportning "Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik" metodikasi hisoblanadi. G.Olport psixologiya fanida insonning ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo'nalganlik nazariyasi va metodikasini yaratgani bilan ham mashhur olimlardan biri hisoblanadi.

G.Olportning [1] ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo'nalganlikning nazariyasi va metodikasining metodologik asosi:

- U.Djeymsning dinning ichki va tashqi jihatlari nazariyasi;
- E.Fromning avtoritar va gumanistik dindorlik nazariyalari hisoblanadi.

Olportning 1937-yilda nashr qilingan kitobi uning din, dindorlik va diniy qadriyatlarga yo'nalganlik bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarga qiziqishidan dalolat beradi. Olimning 1950-yilda nashr etilgan "Individ va uning dini" kitobida esa diniy tuyg'ular va qadriyatlarning bosqichlari keltirib o'tiladi. Ushbu asarda olim dindorlikning yetuk va yetuk bo'lmagan ko'rinishlarga ega ekanligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. 1954-yilda esa ushbu nazariya institutsional va ichki diniy yo'nalganlik tiplariga o'zgaradi. Va nihoyat, 1959-yilga kelib bu ham o'zgarib, ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo'nalganlik tiplari nazariyasi vujudga keladi.

Shu asnoda, 1959-yildan boshlab zamonaviy psixologiyaga ichki va tashqi diniy qadriyatlarga yo'nalganlik tiplari tushunchasi kirib keldi. Bu tushuncha fanga G.Olport [6] tomonidan olib kirildi. G.Olport 1967-yilda E.Ros bilan birgalikda o'z nazariyasida doirasida "Olport va Rosning diniy yo'nalganlik so'rovnomasi"ni ishlab chiqadilar [3]. "Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik so'rovnomasi"ning tuzilish shaklining metodologik asosi sotsiolog G.Lenski [2] metodikasiga asoslanadi.

So'rovnoma jami 20 ta savoldan iborat bo'lib, 1 dan 11 gacha bo'lgan savollar tashqi diniy qadriyatlarga yo'nalganlik mezonini aniqlashga qaratiladi. Qolgan 11 dan 20 gacha bo'lgan savollar esa ichki diniy qadriyatlarga yo'nalganlikni mezonini aniqlashga qaratiladi. Har bir savolga to'rttadan javob variantlari berilgan va ularga ma'lum miqdordagi ballar beriladi.

Javoblarni qayta ishlash jarayoni har bir mezonga tegishli bo'lgan savollarga berilgan javoblariga qarab umumiy ballar hisoblanadi va ustun diniy yo'nalganlik tiplari aniqlanadi.

Diniy qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan yana bir metodikalardan biri I.F. Myagkov, Y.V. Shcherbatix, M.S. Kravsovlarning "Individual diniy qadriyat tiplari" testi hisoblanadi.

Individual diniy qadriyat tiplari – bu Alloh tomonidan yaratilgan dunyoni idrok etishning maxsus paradigmasi mavjudligi bilan shartlangan va murakkab integral ijtimoiy-psixologik xususiyat sifatida tavsiflanadi. Diniy qadriyat tiplari tuzilmasi zamirida shaxsning turli xil dindorlik darajalariga ega bo'lgan ko'rsatkichlar to'plami tushuniladi [4].

Olimlarning mazkur metodikani yaratishiga sabab so'ngi yillarda dinning jamoatchilik ongiga ta'siri bir necha marotaba oshganligi va diniy ong sifatida o'rganilishiga qarshi bo'lgan turli xil mafkuraviy taqiqlarni olib tashlanishi bo'ldi. Shu maqsadda 1995-yil Voronej davlat universiteti olimlari deviant xulq-atvor shakllarining psixologik laboratoriyasida dindorlik tiplari tuzilishi bo'yicha test savolnomasi ishlab chiqqanlar. Dindorlik darajalarini o'lchovchi mazkur metodika jami 40 ta savoldan iborat bo'lib, ular

- dinga falsafiy qadriyat sifatida yo'nalganlik;
- sirli va sehrli dunyoning mavjudligiga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar;
- dinga qo'llab-quvvatlanish qadriyati sifatida yo'nalganlik;
- tashqi dindorlik qadriyatlariga yo'nalganlik;
- dinga har xil e'tiqodiy qadriyatlarning ustunlik qilishi;
- dunyoni vujudga keltirgan oliy kuch, ya'ni yaratuvchi zotning mavjudligini tan olish;
- ichki dindorlik qadriyatlariga yo'nalganlik,
- dinga ma'naviy qadriyat sifatida yo'nalganlik kabi 8 ta dindorlik tiplarini o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur metodika mezonlarining barchasi bir qarashda bir xildek anglanishi mumkin. Chunki barcha mezonlar insonning e'tiqodidan kelib chiqqan holda diniy qadriyatlarga yo'nalganlik tiplari hisoblanadi. Ammo diqqat bilan fikrlab nazar solinsa ular ular o'rtasida sezilarli darajada mazmuniy farqli jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

Insonlar ruhiyati shakllangan diniy qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan metodikalar sirasiga D.O.

Smirnovning “Diniy qadriyatlar faolligi”ni aniqlash metodikasi ham kiradi.

D.O. Smirnovning “Diniy qadriyatlar faolligi”ni aniqlash metodikasi B.S. Merlinning “Integral individuallik va B.A. Vyatkinning “Shaxs faolligi” nazariyalari ta’sirida vujudga kelgan. Mazkur ikkala nazariya asosida psixologiya faniga yangi “Diniy qadriyatlar faolligi” atamasi kirib kelgan. Mazkur atamani fan doirasida o’rganilishiga quyidagi omillar sabab bo’ladi:

- diniy qadriyatlar faolligining sotsiologik va diniy yondashuvlardan farqli o’laroq uning psixologik jihatlarini ajratib ko’rsatish;
- diniy qadriyatlar faolligi faqat dindorlikni tavsiflovchi xususiyat emas, balki subyektning Alloh bilan maxsus transsendental aloqaga yo’naltirish istagi ekanligini isbotlash;

B.S. Merlin fikriga ko’ra, integral individuallik “Ochiq tarzda o’zini o’zi rivojlantiradigan va o’zini o’zi boshqaradigan tizim” hisoblanadi. Unda o’ziga xos faollik mavjud bo’ladi. U moddiy va ijtimoiy muhit bilan erkin energiya almashinuvi jarayonida sodir bo’ladi, bu yerda individuallik anglanadi va yaxlitlikka erishadi.

Bunga ko’ra diniy qadriyatlar faolligi va integral individuallik nuqtai nazaridan inson faolligining eng yuqori darajalaridan biri bo’lgan dinamik shakllanish, sub’ektning ichki va tashqi dunyosining ta’sirida sodir bo’lgan faollik, shaxsning individual xususiyatlari tizimida ma’lum bir joyni egallovchi hodisa sifatida tushuniladi.

“Diniy qadriyatlar faolligi” shaxsning atrofidagi haqiqat obyektlari bilan o’zaro harakatlarining asosiy sifati, darajasi va o’lchovidir. Shu jumladan B.A. Vyatkinning “Shaxs faolligi” nazariyasiga ko’ra, faollik insonning o’zini-o’zi rivojlantiruvchi sub’ekt sifatida hayotda o’zini namoyon etish usulidir. Shuningdek, diniy faollik shaxs psixikasining o’ziga xos keng ko’lamli tushunchasi sifatida quyidagi nazariyalarni o’z ichiga qamrab oladi:

- U.Djeys, S.Groff, R.Leng va A.Masloularning din va maxsus diniy tajribalarga bo’lgan ehtiyoj;
- R.Asadjioli E.Noyman, Z.Freyd va K.Yunglarning din va diniy faolliklar yuzaga kelishining asosiy ongsizlik psixikasining markazi, deb anglash;
- 3.Freyd, K.Yung, A.Adler va E.Eriksonlarning nevroitik buzilishlarni yengishning ichki mexanizmi;
- E.Fromm, V.Frankl, I.Yalomlarning insonni doimo ilohiy borliq haqiqatlarini izlashga undaydigan yechimi yo’q ekzistensial muammolari.

Shunga ko’ra diniy faollik sub’ektning Alloh bilan o’zaro ilohiy munosabatni amalga oshirishga qaratilgan hamda g’ayritabiiy narsalarga ishonishda yuzaga keladigan diniy kechinmalar, diniy xulq-atvor va xatti-harakatlar hisoblanadi. Diniy faollik murakkab va ko’p komponentli psixologik omil sifatida tavsiflanadi.

1984-yilda A.I. Krupnov faollik modeli asosida quyidagi diniy faollik strukturasi taklif etildi:

- motivatsion komponent – insonni Allohga ibodat qilishga undaydigan ichki sabablar ierarxiyasi;
- dunyoqarash komponenti – dindorlikning ratsional, refleksiv jihatlarini aks ettiruvchi va ma’naviy kechinmalar, inson, dunyoning yaralishi va Alloh hamda U yaratgan narsalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarni o’z ichiga oladi;

- atributli komponent – Alloh bilan bevosita emotsional munosabat o’rnatishga xizmat qiluvchi diniy marosimlar, urf-odatlar va diniy qadriyatlarni o’z ichiga oladi;
- affektiv natijaviy komponent – shaxsning astenik va stenik kechinmalari orqali Alloh bilan o’zaro emotsional munosabat o’rnatish natijasi hisoblanadi.

Shuningdek, yuqorida keltirib o’tilgan nazariyalar modellari amaliyotda o’z tasdig’ini topishi uchun biz ham o’z ishimizda D.O. Smirnov tomonidan tuzilgan “Diniy qadriyatlar faolligi” metodikasidan foydalanishga harakat qildik. Mazkur metodikaning nazariy-metodologik asosi B.S. Merlin, B.A. Vyatkin, U.Djeys, S.Groff, R.Leng, A.Maslou, R.Assadjioli, E.Noyman, Z.Freyd, K.Yung, 3.Freyd, A.Adler va E.Eriksonlarning nazariyalari hisoblanadi. Tuzilishining metodologik asosi esa A.I. Krupnov [5] faollik modeli hisoblanadi.

Mazkur metodika 4 ta subtestdan iborat bo’lib, birinchi subtest 36 ta, ikkinchi, uchinchi, va to’rtinchi subtestlar 11 tadan savollar tarkibidan iborat. Ushbu metodika quyidagi mezonlarni aniqlashga qaratilgan:

- astenik qadriyatlar;
- stenik qadriyatlar;
- dindorlikni anglash ostonasidagi (dindorlikka yetaklovchi) qadriyatlar;
- ichki va tashqi diniy qadriyatlar;

- diniy xatti-harakatlar va diniy tabiiy-ilmiy qadriyatlar.

Muhokama va xulosalar: yuqoridagi keltirilib o'tilgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin.

1. Insonlar ruhiyatida mavjud bo'lgan diniy qadriyatlarni aniqlovchi metodikalar sanoqli darajani tashkil etishi va ular faqatgina subyektiv metodikalardan iborat.

2. G.Olportning "Diniy qadriyatlarga yo'nalganlik so'rovnomasi"ning tuzilish shaklining metodologik asosi sotsiolog G.Lenski metodikasiga asoslanadi.

3. D.O. Smirnovning "Diniy qadriyatlar faolligi"ni aniqlash metodikasi B.S. Merlinning "Integral individuallik" va B.A. Vyatkinning "Shaxs faolligi" nazariyalari ta'sirida vujudga kelgan.

4. D.O. Smirnovning "Diniy qadriyatlar faolligi"ni aniqlash metodikasi mazkur metodikaning nazariy-metodologik asosi B.S. Merlin, B.A. Vyatkin, U.Djeyms, S.Groff, R.Leng, A.Maslou, R.Assadjioli, E.Noymann, K.Yung, Z.Freyd, A.Adler va E.Eriksonlarning nazariyalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анцыферова Л.И. К психологии личности как развивающейся системы//Психология формирования и развития личности. – М.: Изд-во МГУ, 1981г. – 368 с.

2. Восковская Л.В. «О религиозной ориентации православных христиан»//Православный ученый в современном мире программа II международной научной конференции. В-2013.

3. Карасева С.Г., Шкурова Е.В. «Многомерный кроссконфессиональный подход к исследованию религиозности в Беларуси: Актуальность и Концептуализация»//Социология. 3/2012.

4. Сувакпит Д.Г. « Особенности индивидуальной религиозности Тувинцев зрелого возраста, исповедующих буддизм», Научный журнал «Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири», №2. – 2017.

5. Смирнов Д.О. Религиозная активность в структуре интегральной индивидуальности: дисс... канд.псих.наук. Пермь 2001. С. 104.

6. Francis L.J., Jewell A., Robbins M. The relationship between religious orientation, personality, and purpose in life among an older Methodist sample // Mental Health, Religion & Culture. 2007. V. 13. № 7-8.